

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SON-SANOQQA O‘RGATISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Meliboyeva Barchinoy Doniyorbek qizi

NamDU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni son-sanoqqa o‘rgatishda multimedia vositalaridan foydalanish yo‘llari xususida so‘z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar. Maktabgacha yosh, ta‘lim, mashg‘ulotlar, multimedia, son-sanoq...

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish sharoitida inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Barkamol inson haqida, uning mehnati va turmushi, ma‘naviy taraqqiyoti haqida g‘amxo‘rlik davlatimizning asosiy maqsadidir. Fan- texnika nihoyatda jadal rivojlanayotgan davrda bolalarning turli sohalardagi tajribalarni sodda holda o‘rganishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi uchun maktabgacha yoshdan kerakli va zarur bilimlarni egallashlariga jiddiy e‘tibor berishimiz lozim. Ayniqsa, matematik bilimlar inson hayotida har tomonlama ahamiyatga ega. Ilk matematik tushunchalarning qanchalik aniq va mustahkam bo‘lishi, bolalar tafakkurining - analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo‘lishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi, «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuni talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlod istiqloq mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta‘limiga tayyorlashdan iboratdir. Dunyo aholisining salkam uchdan bir qismini bolalar tashkil etadi. Bugungi kunda qator rivojlangan davlatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, AQSHda - Children and popular culture (Bolalar ommaviy madaniyat), Math and Parent Partnerships, AQSH da —Children and popular culture (Болалар ва оммавий маданият) ҳамда —Math and Parent Partnerships (matematika va ota-onalar hamkorligi) dasturlari bir necha yillardan buyon amal qiladi. Ushbu dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ta‘lim –tarbiya jarayonida maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali ularda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishga, ota-onalarga farzandlarining kelajagi uchun matematikaning ahamiyatini tushunishga, ushbu fan bo‘yicha bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Irlandiyada ta‘lim sifatini oshirish maqsadida Delivering Equality of Opportunity in Schools DEIS (maktablarda teng imkoniyatlarni ta‘minlash) dasturi

kiritilgan. Bu dastur Ota-onalar farzandlarining o'quv faoliyatlarini kuzatish, onlayin ishtirok etish nazarda tutilgan. Xalqaro ta'lim standartlari 3-7 yoshli bolalarning zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida asosiy tushunchalarni bilishi va ulardan unuli foydalanish ko'nikmalarini egallahni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini qayta qurishning asosiy yo'nalishlaridan biri bolaning xususiyatlari, imkoniyatlari, layoqati va qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda uni shaxs sifatida mukammal rivojlantirishga qaratilgan ta'limdir. Ma'lumki, har bir inson o'zining intilishlari, qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra hayotda o'z o'rnini topa olgan sharoitda rivojlanuvchi jamiyatni barpo-etishim mumkin. Ma'lumki, multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini boyitadi, o'quv materialini ta'limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralilashtirish imkonini beradi. Multimedia -bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro vizual va audiosamara ta'siridan iborat bo'lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni bir raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi.

Multimedia tushunchasi – turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasini anglatadi. Multimedia texnologiyalari - bu turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasidir. Multimedia texnologiyalariga avvalo, tovushlar, video-elementlarni qayta ishlovchi vositalar kiradi. Bundan tashqari, multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika ham multimedia texnologiyalari qatoriga kiradi. Ehtimol, kelajakda multimedia vositalari ma'lumotning boshqa turlari, masalan, virtual voqelik bilan ishlash imkonini berishi ham mumkin.

Jamiyatdagi insonning to'laqonli faoliyati, ya'ni lining har kungi hayoti, ishlab chiqarish faoliyati, undan yuqori darajadagi umumiy rivojlanish va umumiy madaniyatini takomillashib borishi talab qilinadi. Shuning uchun bizning asosiy vazifamiz maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni bilimga undash, faollikka chaqirish, amaliy faoliyatning har bir turida matematik tushunchalarning muhimligini ko'rsatish, fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Demak, zamonaviy maktabgacha ta'lim oldida bolalarga yoshligidan boshlab mustaqil, faol matematik tushunchalarni rivojlantirish vazifasi turibdi. Zamonaviy fanda matematik tushunchalarni rivojlantirishning bir necha yo'nalishlari belgilandi: falsafa bilimlarning haqqoniylik muammosini ko'rib chiqadi; mantiq tushunchani rivojlantiruvchi bilim tizimi sifatida o'rganiladi, psixologiya har bir bolaning mustaqil fikrlash jarayonini nimaga, qaysi fikrlash jarayoni orqali namoyon bo'lishini, inson fikrlash jarayoni yordamida noma'lumni, yangilikni topadi, degan farazni ko'rib chiqadilar; pedagogika bolalardagi ijodiy faoliyatni shakllantirish yo'llarini, yosh avlodni ijodiy mehnatga tayyorlashni tekshiradi.

Matematik tushunchalarni rivojlantirish muammosi psixologik nuqtai nazardan quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- 1) tushunchaning tuzilishi va shaklining paydo bo'lishi;
- 2) tushunchalarni shakllantirish uchun aqliy harakatlar va aqliy faoliyat yo'llarini, usullarini rivojlantirish.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy multimedia texnologiyalarining joriy etilishi an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi samaralarga erishish imkonini beradi:

- jadval va rasmlarni rangli, ovozli, animatsiyalar, gipermatnlar bilan boyitish;
- interaktiv veb-elementlar, testlardan foydalanish;
- darsning nazariy materialini boyitib borish;
- axborotlarning muntazam ravishda yangilab turish;
- ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar bilan ko'proq individual ishlash, ularning darsga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, voqelikni kompleks o'rganish;

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda multimedia texnologiyalari - ta'lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etish talabalar va o'quvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir. Shu sababli ham bugungi kun o'qituvchisi tinimsiz o'z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg'or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan shaxs sifatida o'z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo'lishi davr talabidir. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi dasturiy va metodik ta'minotni takomillashtirish, moddiy baza, shuningdek, tarbiyachi mutaxassislar malakasini oshirishni talab etadi. Multimedia vositalari pedagog-kadrlarining malakasini va mahoratini yanada oshirishlarida ham muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ 595-sonli qonuni 2019-yil, 16-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5198-sonli Farmoni. 2017 yil 30 sentyabr.
- 3.“O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil, 8 may.
4. Bikbaeva N.U, Ibragimova Z.I., Qosimova X.I. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish. – T.O‘qituvchi, 1995 y.
5. Jumayev M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi. – T, 2007.